Raqamli iqtisodiyot davrida kontent marketingdan foydalanish va uning bosqichlari.....	1064
<b>Tohirjonov Ahmadjon Tohirjon o'g'li, Ergashxodjayeva Shaxnoza Djasurovna</b>	
Aksiyadorlik jamiyatlari kapitalini shakllantirish manbalari va usullarini takomillashtirish.....	1070
<b>Norqulov Mirsaid Tulqin o'g'li</b>	
Qishloq xo'jaligi sohasida investitsion jozibadorlikni oshirish zaruriyati.....	1075
<b>Badalov Jamshid Jamolovich</b>	
Foyda solig'i tushumi va uning O'zbekiston soliq-budjet tizimidagi ahamiyati.....	1080
<b>Shirinov Sabir Erkinovich</b>	
O'zbekistonda davlat korxonalari aksiyalarini moliya bozorlarida sotishni jadallashtirish yo'nalishlari.....	1084
<b>Anvar Eshmatov</b>	
Baliqchilik xo'jaliklarida xodimlar bilan hisob-kitoblar hisobining tashkiliy va uslubiy jihatlarini.....	1088
<b>Ametova Nasiba Danilovna</b>	
Tijorat banklari tomonidan eksportyor korxonalarining kreditlash amaliyotini takomillashtirish.....	1092
<b>Bayjanova Gozzal Sarsengaliyevna</b>	
Digital Transformation of Tax Systems.....	1096
<b>Boburjon Turanboyev Qodirjon o'g'li, Musabekov Sherali Nazarali o'g'li</b>	
Yangi O'zbekistonda xotin-qizlarning ijtimoiy-iqtisodiy faolligini oshirish yo'nalishlari.....	1101
<b>Raxmonova Aziza Tolibovna</b>	
Transitioning to a Green Economy and Implementing Sustainable Technological Changes in Uzbekistan.....	1106
<b>Umarov Elshod G'ulom o'g'li</b>	
Texnik yo'nalishdagi oliy ta'lim muassasalari daromadlari tarkibi va ularning o'ziga xos jihatlari.....	1112
<b>Yuldashov Elmurod Abdujalil o'g'li</b>	
Совершенствование системы профессионального управления жилищно-коммунальным хозяйством Узбекистана.....	1116
<b>Икромовна Ханифа Одилловна</b>	
Sanoat korxonalarini kreditlash amaliyotining zamonaviy holati.....	1121
<b>Kamalova Jamila</b>	
O'zbekistonda davlat ishtirokidagi korxonalarining huquqiy maqomi va ularni isloh qilishning istiqbollari.....	1125
<b>Qahhorov Azizjon Ahror o'g'li</b>	
Nodavlat notijorat tashkilotlari mablag'lari va ulardan foydalanish to'g'risidagi bajarilishlarga oid hisobotni tuzish va taqdim etish tartibi.....	1131
<b>Ne'matov Oybek Ismatullayevich</b>	
Предприятие автомобильной промышленности как объект реализации концепции устойчивого развития.....	1136
<b>Туйчиев Комилжон Лазизович</b>	
Tijorat banklari aktivlari diversifikatsiyasining nazariy ahamiyati.....	1143
<b>O'ktamova Nozima Narzulla qizi</b>	
Tijorat banklarida yangi masofaviy bank xizmat turlarini rivojlantirish.....	1146
<b>Umarov Abdulquddus Abdilxatovich</b>	
Некоторые вопросы эконометрической оценки CES – функций и их практическое применение в экономических задачах.....	1151
<b>Шадиева Гулнора Мардиевна, Усманов Фарзод Шохрухович</b>	
Использование искусственного интеллекта в спортивной индустрии.....	1158
<b>Усманова Дилфузахон Иброхимовна</b>	
The Role and Significance of Internal Audit as an Effective System of Internal Control in Business Entities.....	1163
<b>Po'latov Sherzodbek Oybek o'g'li, Farmonov Ilhomjon Iqboljon o'g'li</b>	



Qishloq xo'jaligini barqaror rivojlantirishda investitsiyalardan foydalanishni takomillashtirish (Andijon viloyati misolida) .....	1168
<b>Xolmatov Sanjarbek Xojimatovich</b>	
O'zbekiston temir yo'l transport tizimi rivojlanishining asosiy ko'rsatkichlari .....	1174
<b>Qilichev Umid Ibadullayevich</b>	
Hozirgi kunda O'zbekiston Respublikasi sharoitida raqamli banklar resurslarini oshirish choralari .....	1181
<b>Xamraqulova Gulnozaxon Faxriddin qizi</b>	
O'zbekiston Respublikasi tijorat banklari kredit foiz stavkasini muvofiqlashtirish masalalari .....	1185
<b>Jumayev Muzaffar Mahmud o'g'li</b>	
O'zbekistonda Islom banklari faoliyatini tashkil etishning ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyati .....	1191
<b>Vasiyev Alisher Samiyevich, Sayfullayev Sirojiddin Soli o'g'li</b>	
Islom iqtisodiyotining mohiyati .....	1197
<b>Sayfullayev Sirojiddin Soli o'g'li</b>	
Budjet mablag'larini taqsimlanishi va maqsadli sarflanishida inson kapitalidan foydalanish va jamoatchilik nazoratining samaradorligi .....	1201
<b>G'ofurov Bekzod Fayzulla o'g'li</b>	
Maxsus iqtisodiy zonalar investitsiya muhiti jozibadorligini oshirishda tarif va notarif mexanizmlaridan foydalanish imkoniyatlari .....	1207
<b>Ja'sur Umirzoqov Artiqboy o'g'li</b>	
Перспективное развитие промышленной кооперации между странами .....	1212
<b>Назарова Раъно Рустамовна, Жартай Жанибек Маратулы</b>	
Soliqlar yig'iluvchanligini oshirishga ta'sir etuvchi omillar .....	1218
<b>Berdiyeva Uguloy Abduraxmanovna</b>	
Ta'lim sifatini ta'minlash oliy ta'lim xizmatlari bozorini rivojlantirishning asosiy omili .....	1222
<b>Nematov Inatillo Ubaydullayevich</b>	
Aholiga ko'rsatiladigan bank xizmatlarini takomillashtirish .....	1228
<b>Umurzakova Adiba Ochilovna</b>	
Tijorat banklari resurslari shakllanishining manbalari va yo'llari .....	1232
<b>Raxmanov Ilxom Xurramovich</b>	
Факторы развития культурного туризма в Узбекистане .....	1238
<b>Пулатова Сурайё Юлдашевна</b>	
Пути эффективного использования внутренних инвестиций в национальной экономике .....	1242
<b>Рафиева Зарина Хусановна</b>	
Development of the Country's Economy Through the Development of the Stock Market in Developing Countries .....	1246
<b>Akhmedov Doniyorbek</b>	
O'zbekistonda raqamli iqtisodiyotini rivojlanishi va uning asosiy yo'nalishlari .....	1250
<b>Azizova Manzura Ibragimovna</b>	
The theoretical importance of product cost reduction in industrial production .....	1254
<b>Dilfuza Baxramovna Safarova</b>	
Fond bozorlarining tashkil etilishi va rivojlanish tendensiyalari .....	1261
<b>Shamsiyev O'ktam Sayfitdinovich</b>	
Mamlakatda davlat tibbiyot muassasalarining tutgan o'rni va ularni rivojlantirish yo'nalishlari .....	1266
<b>Sultonova Mushtariy Abdulabbosovna</b>	
Obligatsiyalar bozorida banklarning ishtiroki va ahamiyati .....	1272
<b>Xushvaqov Islombek Muxammadi o'g'li</b>	
Milliy iqtisodiyotimizda investitsiya portfelini shakllantirishning nazariy asoslari .....	1277
<b>Ibragimov Gafurjan Axmetovich</b>	
Kompaniyalarning tashqi savdo faoliyatini moliyalashtirishning nazariy asoslari va xorij tajribasi .....	1282
<b>Ibragimov Mansur Axmedovich</b>	
Mahalliy byudjetlar xarajatlari ijrosining samaradorligini oshirish masalalari (Jizzax viloyati misolida) .....	1286
<b>Mamayusupov Omonulla Mamatqulovich</b>	
Ключевые факторы успеха в мотивации и управлении проектными командами .....	1294
<b>Мансурова Севара Мансуровна</b>	
Mehmonxona biznesida CRM tizim xizmatlarini loyihalash .....	1297
<b>Ishanxodjayeva Dilfuza Erkinovna</b>	



# TIJORAT BANKLARI TOMONIDAN EKSPORTYOR KORXONALARNING KREDITLASH AMALIYOTINI TAKOMILLASHTIRISH

**Bayjanova Gozzal Sarsengaliyevna**

Qoraqalpog'iston davlat universiteti mustaqil izlanuvchisi

**Annotatsiya:** Maqolada korxanalarining eksport salohiyatini oshirishda bank kreditlarining o'rni muhimligi yoritilgan. Jahon amaliyotida rivojlanayotgan mamlakatlarning iqtisodiy barqarorligini ta'minlovchi asosiy omillardan biri bu korxanalarining eksportining diversifikatsiyasi darajasi yuqoriligi hisoblanadi, eksportining diversifikatsiyasi uchun moliyaviy sektorlardan korxanalariga uzoq muddatli kreditlar va sug'urta xizmatlarini ko'rsatish muhimligi keltirib o'tilgan. O'zbekiston iqtisodiyoti rivojida mazkur amaliyotlardan samarali foydalanish yuzasidan amaliy taklif va tavsiyalar keltirilgan.

**Kalit so'zlar:** eksportyor korxona, tijorat bank, eksport, kredit, modernizatsiya, diversifikatsiya, milliy eksportchilar, investitsiya, siyosiy risk, sug'urta, xorijiy sarmoya, foiz stavka.

**Abstract:** The article emphasizes the importance of bank loans in increasing the export potential of enterprises. In world practice, one of the main factors ensuring the economic stability of developing countries is the high level of diversification of exports of their enterprises, the importance of providing long-term loans and insurance services from the financial sector to their enterprises for diversifying exports. export is mentioned. Practical proposals and recommendations for the effective use of these practices in the development of the economy of Uzbekistan are presented.

**Key words:** exporting enterprise, commercial bank, export, credit, modernization, diversification, national exporters, investments, political risk, insurance, foreign investment, interest rate.

**Аннотация:** В статье подчеркивается значение банковских кредитов в повышении экспортного потенциала предприятий. В мировой практике одним из основных факторов, обеспечивающих экономическую стабильность развивающихся стран, является высокий уровень диверсификации экспорта их предприятий, важность предоставления долгосрочных кредитов и страховых услуг со стороны финансового сектора их предприятиям для диверсификации экспорта. упоминается экспорт. Представлены практические предложения и рекомендации по эффективному использованию данных практик в развитии экономики Узбекистана.

**Ключевые слова:** предприятие-экспортер, коммерческий банк, экспорт, кредит, модернизация, диверсификация, национальные экспортеры, инвестиции, политический риск, страхование, иностранные инвестиции, процентная ставка.

## KIRISH

O'zbekistonda iqtisodiyotni isloh etish va modernizatsiya qilish yo'lidagi izchil harakatlarni kuchaytirish, ularni yangi, yanada yuqori bosqichga ko'tarish ustivor vazifa qilib belgilangan. Bu vazifalarning ijrosini so'zsiz ta'minlash provardida vatanimiz taraqqiyotini yanada yuksaltirish va xalqimiz farovonligini oshirishga qaratilgan bo'lib, bunda hal qiluvchi omil sifatida korxanalarining eksport salohiyatini oshirish va ularning moliyaviy holatini mustahkamlashda tijorat banklarning rolini oshirish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Har bir davlatning eksport salohiyatini o'sishi uning iqtisodiy rivojlanishi bank tizimidagi moliyaviy barqarorlik bilan uzviy bog'liq ekani rivojlangan davlatlar tajribasidan yaxshi ma'lum. Chunki, iqtisodiyot tarmoqlarini tarkibiy qayta qurish, ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish, yangi korxonalar barpo etish, korxanalarini rivojlantirish va xorijiy investitsiyalarni jalb qilishda banklar muhim o'rin tutadi. O'zbekiston Respublikasida korxanalarini eksport salohiyatini rivojlantirish uchun tijorat banklari tomonidan ajratilgan investitsion kreditlarning salmog'i 12,2 trln. so'mni tashkil qilib, bu ko'rsatkich umumiy berilgan kreditlarning 13,2 foizni tashkil qilmoqda <sup>[1]</sup>. Xuddi shu ko'rsatkichlar AQShda 32,5 foiz, Germaniyada 41,5 foiz va Xitoyda 15,3 foizni tashkil qiladi <sup>[2]</sup>. Ushbu ko'rsatkichlardan ko'rinib turibdiki respublikamizda korxonalar eksportini rivojlantirish uchun ajratilayotgan investitsion kreditlar salmog'ini kamida ikki uch barobarga ko'tarish zarur. Zamonaviy iqtisodiy munosabatlarga jahon bozorida raqobat tobora kuchayib borayotgan bugungi kunda iqtisodiyotning raqobatbardoshligini tubdan oshirish, eksportga mahsulot





ishlab chiqaruvchi korxanalarini har tomonlama qo'llab-quvvatlashni kuchaytirish, fermer xo'jaliklari va korxonalarining tashqi bozordagi amaliy ishtirokini ta'minlash, ularga qulay sharoit yaratish muhim ahamiyatga ega. Binobarin, hukumatimiz tomonidan eksportchi korxanalarining katta-kichikligidan qat'iy nazar, ularning tashqi bozor uchun yangi mahsulot ishlab chiqarishini rag'batlantirish choralari ko'rib kelinmoqda. Bugungi kunga kelib korxanalarining eksport salohiyatini mustahkamlashda tijorat banklarining kreditlash faolligining samaradorligini oshirish davlat uchun muhim ustuvor vazifaga aylanmasa – bunday davlat jahon taraqqiyoti yo'lidan chetda qolib ketishi muqarrardir.

Rivojlanayotgan mamlakatlarning barqarorligini ta'minlovchi asosiy omillardan biri eksport konsentratsiyasining pasayishi hisoblanadi. Eksport miqdori bo'yicha xomashyoning ulushi ortsa, jahon bozorlarida tovar narxining o'zgarishi mamlakatning qayta ishlash sanoatida pasayishiga olib keladi. O'z navbatida, bu YaIM o'sish sur'atlariga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "2022–2026-yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-son Farmoni iqtisodiyotni rivojlantirish va liberallashtirishning ustuvor yo'nalishlarini belgilashda yangi bir bosqichni boshlab berdi. Mazkur Farmondan ko'zlangan asosiy maqsad, mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlar samaradorligini yanada yuksaltirish, davlat va jamiyat har jihatdan rivojlanishini ta'minlash uchun shart-sharoit yaratishdir. Xususan, yaqin besh yilga mo'ljallangan mazkur tarixiy ahamiyatga ega hujjatning uchinchi yo'nalishida xususiy mulkning huquq va kafolatlarini ishonchli himoyalashni ta'minlash, barcha turdagi to'siq hamda cheklavlarni bartaraf etish, ishbiarmonlik muhitini yanada rivojlantirishga to'liq erkinlik berish masalasiga alohida ahamiyat qaratilgan [3]. Bu bilan korxanalarining eksporti va bank kreditlari faoliyatini tartibga solishning zamonaviy prinsip hamda mexanizmlarini joriy etish, yetakchi ishlab chiqarish tarmoqlarini monernizatsiya va faol diversifikatsiya qilish, moliya-bank sohasini isloh etishga erishilishi, shubhasiz. Shuning uchun korxanalarining eksportini diversifikatsiyalashni ta'minlash uchun bank sektoridan milliy eksportchilarga uzoq muddatli kreditlar va sug'urta xizmatlarini ko'rsatish muhim.

## ADABIYOTLAR SHARHI

Korxonalarini kreditlash va ularni takomillashtirish orqali mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirish, kreditlash tartibida yuzaga keluvchi riskli jarayonlarni baholash va boshqarish hamda kreditlash amaliyotining prognoz ko'rsatkichlarini ishlab chiqishning ayrim jihatlarini xorijlik iqtisodchi olimlardan Yu. A. Gerasina, R. M. Rasulov va boshqalarning ilmiy ishlarida atroflicha tadqiq etilgan (Gerasina, Rasulov 2011).

Xorijiy olimlarning fikrlari o'rganilganda, amerikalik iqtisodchi olim Piter S. Rouz bank kreditining ahamiyatini quyidagicha ta'riflaydi, ya'ni - "bank kreditlari yangi korxonalar va korxonalarning paydo bo'lishiga va yangi ish o'rinlarining ko'payishiga ko'maklashadi, hamda ularning iqtisodiy hayotiylikini ta'minlaydi" deb ta'rif bergan bo'lsa, Rossiyalik taniqli iqtisodchi olim T.Mazurina iqtisodiyotning real sektorini tijorat banklari kreditlari hisobidan kreditlashni rivojlantirish uchun quyidagi sharoitlarning mavjud bo'lishini asoslab bergan, ya'ni davlatning samarali iqtisodiy siyosatining mavjudligi va korxonalar va korxonalarning daromadlilikini oshirish sifatida baholagan (Rouz 1997).

Fikrimizcha, yuqoridagi ikkala olimlarning yondashuvlari davlatning va tijorat banklarning korxonalarning rivojlanishiga ko'maklashishi va ularning daromadlilikini oshirishga xizmat qilishi o'z navbatida yangi ish o'rinlarini yaratilishi va iqtisodiyotning rivojlanishiga olib kelishi mumkin.

Eksport diversifikatsiyasini oshiruvchi muhim omillardan biri – bank tizimining rivojlanishidir. Zamonaviy adabiyotlarda bank tizimi rivojlanishining eksport texnologik darajasini oshirishga bo'lgan ta'siri bo'yicha 3 asosiy yo'nalishi mavjud [4]:

- birinchi yo'nalishda xom-ashyo tovarlari narxlarining keskin o'zgarishi natijasida eksportyorlarda diversifikatsiyalashga bo'lgan ishtiyoq oshadi. Moliyaviy institutlarning rivojlanishi esa har xil shakldagi mahsulotlarni sug'urtalaydi, risklarni diversifikatsiyalaydi va resurslarni eng samarador tovarlar ishlab chiqarishga yo'naltiradi [5].
- ikkinchi yo'nalish shuni nazarda tutadiki, bank tizimining rivojlanishi mamlakatlarning nisbiy ustunligini ta'minlaydi. Bu yo'nalish tarafdorlarining fikrlariga ko'ra, tabiiy resurslar bilan ta'minlanganlik va iqtisodiy tomondan rivojlanganlik darajasi bir-biriga yaqin mamlakatlarning nisbiy ustunligi, ular moliyaviy sohasining rivojlanganlik darajasi bilan aniqlanadi. Shuningdek, qayta ishlash sanoati qazib chiqarish sanoatiga qaraganda qo'proq miqdorda moliyaviy mablag'larni talab etadi. Radjan va Zingalesning ta'kidlashicha, neft qazib olish hamda metallurgiya sohalari kam miqdorda moliyaviy mablag' talab etadi. Bundan xulosa qilish mumkinki, moliyaviy soha rivoji eksport konsentratsiyasini kamaytiradi va qayta ishlab chiqarish sanoati rivojlanishini rag'batlantiradi [6].
- uchinchi yo'nalish Shumpeter nazariyasiga asoslangan bo'lib, bank tizimi innovatsiyani rag'batlantirishda markaziy ahamiyat kasb etadi. O'z navbatida, bu qayta ishlash sanoatida mahsulot ishlab chiqarishni ko'paytiradi. So'ngi yillarda tadqiqotchilarning ta'kidlashicha, innovatsiya yetarlicha riskli bo'lib, bu



jarayon uzoq muddatli mablag'larni talab qiladi <sup>[7]</sup>. Shuningdek, davlat kredit-moliya institutlari eksport va ishlab chiqarishni diversifikatsiyalashda xususiylariga qaraganda muhim ahamiyat kasb etadi. Bu holatda korxanalarini moliyalashtirishda bank, davlat venchur fondlari yoki nafaqa fondlari mablag'larini jalb qilish tizimini rivojlantirish muhimdir.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur maqolada mazkur yo'nalishga ta'sir etuvchi omillar aniqlangan. Tahlil jarayonida ilmiy abstraksiyalash, ekspert baholash, induksiya va deduksiya, taqqoslash, tizimli tahlil usullaridan foydalanilgan.

## TAHLIL VA NATIJALAR MUHOKAMASI

Eksport operatsiyalariga uzoq muddatli kreditlar ajratish va eksport risklarini diversifikatsiyalashda eksport-import banklari hamda eksportni kreditlovchi agentliklar roli katta ahamiyatga ega. 2022-yil yakunlariga ko'ra, Bern Ittifoqi va Praga Klubi (Uzbekinvest a'zo) a'zolari eksport operatsiyalarini kreditlash hamda sug'urtalash uchun mos ravishda 1,84 trln. va 30,85 mlrd. AQSh dollari miqdorida mablag'lar taqdim etgan <sup>[6]</sup>. Bu ko'rsatkich 2020-yilda butun jahon eksportining qariyb 11 foizini tashkil etdi <sup>[7]</sup>. Ko'rinib turibdiki, eksport operatsiyalarida eksportni kreditlovchi agentliklar roli oshib bormoqda. So'ngi yillarda jahon mamlakatlari eksportlarida qo'shilgan qiymati yuqori mahsulotlar va yuqori texnologiyalar ulushini oshirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Eksport-import operatsiyalariga taqdim etiladigan kreditlar Bern Ittifoqi tomonidan quyidagi asosiy 3 ta tasnifga ajratiladi:

- Qisqa muddatli eksport kreditlari;
- O'rta va uzoq muddatli eksport kreditlari;
- Eksport operatsiyalarini sug'urtalash.

Bundan tashqari, qisqa muddatli kreditlar korxanalariga ham beriladi. Chunki eksport-import bilan shug'ullanuvchi korxanalari katta korxonalarga qaraganda ishchi kapitaliga tezroq muhtojlik sezadi. Ularda ishchi kapitali yetishmovchiligi muammosini hal etish uchun eksim banklar kreditlar taqdim etadi. Eksim banklar eksport-import operatsiyalarini risk turlariga ko'ra sug'urtalaydi. Bu risklar siyosiy, tijoriy va iqtisodiy bo'lishi mumkin. Statistik ma'lumotlarga ko'ra, jahon bo'ylab eng ko'p miqdorda siyosiy risklar sug'urtalanadi (1-jadval).

1-jadval: Xorijiy davlatlarda korxanalari uchun eksport import banklari tomonidan ajratiladigan kreditlar

	Qisqa muddatli	O'rta va uzoq muddatli	Sug'urtalash
Xitoy eksport import banki	Qisqa muddatli eksport operatsiyalariga kreditlar ajratish. Eksport tovarlari va xizmatlari uchun o'z vaqtida to'lanmagan eksportyorlar uchun	Xitoy eksportyorlari uchun kredit Xitoydan importyorlar uchun kredit	Risklarni turlariga ko'ra sug'urtalash Siyosiy va tijorat risklarini sug'urtalash Fors-mojor holatlarini sug'urtalash
Hindiston eksport import banki	Mahsulot va xizmatlarni jo'natishgacha/ jo'natgandan so'ng kreditlar Xomashyo import qiluvchilarni kreditlash	Hindiston eksportyorlari uchun kreditlar Hindistondan importyorlar uchun kredit Kredit liniyalari	Siyosiy va tijorat risklarini sug'urtalash Fors-mojor holatlarini sug'urtalash
Vetnam eksport import banki	Mahsulot va xizmatlarni jo'natishgacha/ jo'natgandan so'ng kreditlar Xomashyo import qiluvchilarni kreditlash	Hindiston eksportyorlari uchun kreditlar Hindistondan importyorlar uchun kreditlar	Siyosiy va tijorat risklarini sug'urtalash Fors-mojor holatlarini sug'urtalash

Manba: [www.sinosure.com.cn](http://www.sinosure.com.cn), [www.eximbankindia](http://www.eximbankindia), [www.eximbank.com.vn](http://www.eximbank.com.vn) ma'lumotlaridan foydalangan holda muallif tomonidan tuzilgan.

Jahon mamlakatlari eksim banklari shunday tasnif bo'yicha eksport-import operatsiyalariga kreditlar ajratadi. Xalqaro eksportda salmoqli ulushga ega bo'lgan davlatlar – Xitoy, Hindiston va Vetnam o'z eksportida yuqori texnologiyalar ulushini oshirishda eksim banklar faliyatidan keng foydalanmoqda. Bu mamlakatlar eksim banklari taqdim etadigan kreditlarning turlariga e'tibor qaratadigan bo'lsak, o'rta va uzoq muddatli kreditlar qo'shilgan qiymati yuqori mahsulotlar, elektronika va mexanika mahsulotlarini eksport qiluvchilarga taqdim etiladi. Shuningdek, ushbu mamlakatlar eksim banklari o'rta va uzoq muddatli kreditlar taqdim etiladigan mahsulotlar ro'yxatini e'lon qiladi. Ayni o'rinda o'rta va uzoq muddatli eksportlarning taqdim etilishiga e'tibor qaratsak. Bu turdagi eksport kreditlari, asosan, mamlakat eksportyorlari (yuqori texnologiyalar) va mamlakatdan yuqori



texnologiyalar import qiluvchilarga taqdim etiladi. Qisqa muddatli kreditlar, asosan, qisqa muddatda amalga oshiriladigan eksport-import operatsiyalari (xomashyo va qo'shilgan qiymati past bo'lgan mahsulotlar)ga taqdim etiladi.

Yuqorida qayd etilgan mamlakatlar eksport import banklari korxanalarining eksportdagi ulushini oshirish maqsadida ularga faol tarzda kreditlar ajratadi. Ammo statistik ma'lumotlarga va iqtisodchilar S. Venkataramayn va B. Bhasinlarning fikrlariga ko'ra, kichik va xususiy korxonalar transmilliy korporatsiyalarga oraliq mahsulot hamda xizmatlar yetkazib beradi [6]. Ya'ni, kichik va xususiy korxonalar umumiy eksportda qo'shilgan qiymati yuqori mahsulotlar hamda yuqori texnologiyalar ulushini oshirmaydi. Shunday holat mavjud bo'lishiga qaramay, qayd etilgan mamlakatlar eksport import banklari korxanalariga faol tarzda kreditlar ajratadi. Buning asosiy sababi – Xitoy, Hindiston va Vetnamda aholi bandligini ta'minlashda korxanalar muhim ahamiyat kasb etadi.

Eksport import banklarning barchasi yuqorida keltirilgan tasnif bo'yicha eksport-import kreditlarini taqdim etadi. Yuqori texnologiyalar va qo'shilgan qiymati yuqori mahsulotlar eksportini aynan o'rta va uzoq muddatli kreditlar ta'minlab beradi. Chunki, yuqori texnologiyalarni eksport qiluvchilar uzoq muddatli kreditlarga ehtiyoj sezadi. Bu kreditlar ularning ishchi kapitali tugab qolmasligini ta'minlovchi asosiy omillaridan biridir. Xitoy, Hindiston va Vetnam mamlakatlarining eksim banklari erkin iqtisodiy hududlarda ishlab chiqarilgan mahsulotlar va xizmatlar eksportiga ham faol tarzda kreditlar ajratadi. Bundan tashqari, eksim banklar xomashyo import qiluvchilarga hamda bu xomashyoni qayta ishlab, ya'ni uning ustiga qiymat qo'shib, eksport qiluvchilarga kreditlar ajratadi. Bu holat mamlakatda qayta ishlab chiqarish sanoatini rag'batlantirishga xizmat qilishi bilan ahamiyatli ekanini qayd etish joiz.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, yurtimizda ko'plab ushbu yo'nalishda ijobiy ishlar qilinayotganligi va erkin iqtisodiy hududlar tashkil etilayotganini inobatga olsak quyidagi chora-tadbirlarni amalga oshirish zarur deb hisoblaymiz:

Nafaqat nisbiy ustunlikka ega sohalarga, balki erkin iqtisodiy hududlarda ishlab chiqarilgan mahsulot va xizmatlar eksportiga ham kreditlar ajratish lozim deb hisoblaymiz. Chunki bunday mexanizmdan Xitoy, Hindiston va Vetnamda keng foydalaniladi.

Xomashyo import qiluvchilarga kreditlar taqdim qilishni joriy etish maqsadga muvofiqdir. Bunday holatda mamlakat hududida qayta ishlab chiqarish sanoati rivojlanadi. Shuningdek, raqobatbardosh mahsulotlar tayyorlashga ishtiyoq ortib, import o'rini bosuvchi tayyor mahsulotlar ishlab chiqarish yo'lga qo'yiladi. Mazkur mexazm Xitoy va Hindistonda yaxshi samara bermoqda.

O'zbekiston korxanalarini eksportyorlariga uzoq muddatli kreditlar taqdim etish va sug'urta xizmatlarini ko'rsatish – mamlakat eksportida yuqori texnologiyalar ulushini oshirishga xizmat qilishi mumkin. Bu esa, o'z navbatida, iqtisodiyotimizning diversifikatsiya darajasi yanada oshishini ta'minlaydi.

Milliy iqtisodiyotga xorijiy investitsiyalarni jalb qilishning hududiy dasturlari samarasini oshirish, uni doimiy monitoring qilish, korxanalarining eksport jozibadorligini oshirishga qaratilgan "Hududlarda iqtisodiy rivojlantirish" konsepsiyasini ishlab chiqish zarur deb hisoblaymiz.

### Foydalangan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Markaziy bank ma'lumotlari [www.cbu.uz](http://www.cbu.uz)
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 2022-yil 28-yanvardagi "2022-2026-yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-son. <https://lex.uz/docs/5841063>.
3. Altowaim S. 2016. Financial development and export diversification in resource-rich developing countries. Department of Economics, University of Glasgow.
4. Beck, T. (2002). Financial development and international trade: is there a link?. Journal of international Economics, 57(1), 107-131.
5. Rajan, R. and Zingales, L., 1998, Financial dependence and growth, American Economic Review 88(3). pp.559-586.
6. Mazzucato, M. (2013). "Financing innovation: creative destruction vs. destructive creation". In: Industrial and Corporate Change 22.4, pp.851-867
7. Eksportning texnologik darajasi quyidagicha tasniflanadi: xom ashyo, past texnologiyali, o'rta texnologiyali, yuqori texnologiyali va resurs sig'imli eksport mahsulotlari. To'liqroq ma'lumot uchun: Lall, S.2000. The technological structure and performance of developing country manufactured exports, 1985-98. Oxford Development Studies, 28(3), 337-369.
8. K.Preugscht et al., "A new Berne Union" Berne Union Yearbook 2016.
9. S.Venkataramany and Balbir B.Bhasin "Institutionalization of Export Promotion in India: An Empirical Study" ISSN: 0971-1023, NMIMS Management Review.
10. <http://www.worldbank.org> [www.sinosure.com.cn](http://www.sinosure.com.cn), [www.eximbankindia](http://www.eximbankindia), [www.eximbank.com](http://www.eximbank.com).

Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>

# Yashil

## IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

**Ingliz tili muharriri:** Feruz Hakimov

**Musahhih:** Xondamir Ismoilov

**Sahifalovchi va dizayner:** Iskandar Islomov

**2023. № 11-12**

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: [sq143235@gmail.com](mailto:sq143235@gmail.com)

Bot: [@iqtisodiyot\\_77](https://t.me/@iqtisodiyot_77)

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, [@iqtisodiyot\\_77](https://t.me/@iqtisodiyot_77) telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

**Litsenziya raqami:** №046523. PNFL: 30407832680027

**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani  
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



### Jurnalning ilmiyligi:

"Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali

O'zbekiston Respublikasi  
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar  
vazirligi huzuridagi Oliy  
attestatsiya komissiyasi  
rayosatining  
2023-yil 1-apreldagi 336/3-  
sonli qarori bilan ro'yxatdan  
o'tkazilgan.